



MAKTABGACHA TA'LIMNING BIZNESDAGI O'RNINI VA MALAKALI PEDAGOGIK KADRLAR BILAN TA'MINLANISHI.

S.M. Xudoyberdiyev

Uzun pedagogika kolleji direktori

A.D. Isayev

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,

Uzun pedagogika kolleji o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11175247>

ARTICLE INFO

Received: 4th April 2024

Accepted: 6th May 2024

Published: 10th May 2024

KEYWORDS

*Biznes, xizmat ko'rsatish, ta'lim
biznesi, MTT, nodavlat MTTlar,
malakali kadrlar.*

ABSTRACT

O'zbekistonda kichik biznes yildan yilga rivojlanib bormoqda. Buni mamlakatimizning yillik YaIM ko'rsatkichidagi ulushining o'sishida ko'rishimiz mumkin. 2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kichik biznesning respublika YAIMdagi ulushi 51,2 % ni tashkil etdi.

Hududlarda kichik biznesning eng katta ulushi Surxondaryo (hududda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat umumiy hajmining 76,7 % ini tashkil etgan), Jizzax (74,2 %), Buxoro (73,1 %) va Samarqand (73,1 %) viloyatlarida kuzatildi.

Biznes – bu iqtisodiy taraqqiyotning drayveri hisoblanib iqtisodiy o'sishning muhim omilidir. Ta'lim biznesi tadbirkorlik sohasida nibatan yosh va rivojlanib bo'rayotgan tarmoqlardan biridir. Uning asosiy maqsadi mehnat bozoriga yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni yetkazishdir. Rivojlanayotgan tarmoqni malakali pedagogik kadrlar bilan ta'minlash mamlakatimizning muhim vazifalardan biri. Mazkur maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (MTT) biznesdagi o'rnini atroflicha tahlil qilinib va buna malakali pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalalari ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda biznes sohasida katta yutuqlarga erishdik desak xato qilmagan bo'lamiz. Hozirgi vaqtga kelib jamiyatimizning barcha sohalarida biznes faoliyatini uchratishimiz mumkin.

Ko'pchilik biznes so'zini eshidgan bo'lsada ularda faqat pul topsh yoki boylik ortirish fikri shakllangan. Lekin biznes faqat yuqoridagi fikr bilan cheklanmasdan u chuqur mazmunga ega kategoriya hisoblanadi.

«Biznes» atamasi ilk bor XVIII-asrning oxiri, XIX-asrning boshlarida paydo bolgan. «Biznes» sozi inglizcha «business» sozidan olingan bolib, «ish», «mashg`ulot» degan manoni bildiradi. Biznes – bu insonning daromad olib, hayot kechiradigan, tirikchilik vositasidir.¹

Biznesning asosiy qismini tadbirkorlik faoliyati tashki etadi. Qachon biznesda yaratuvchanlik xususiyati namoyon bo`lsa bu tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Ya`ni agar biznesda tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko`rsatish jarayonlari kuzatilsa - bu tadbirkorlik faoliyatidir.

Jamiyatimizda biznesning turli xil ko`rinishlari mavjud. Ko`lamiga ko`ra biznes kichik, o`rta va yirik biznes turlarga bo`linadi. Sohalar bo`yicha esa sanoat, qishloq xo`jalik, qurilish, maishiy xizmat, transport, ta`lim, tibbiyot va boshqa biznes turlariga ajraladi.

O`zbekistonda, xususan Surxondaryo viloyatida, xizmat ko`rsatish tadbirkorlik sohasi dinamik rivojlanib bormoqda, buni 1 – jadvaldan ko`rishimiz mumkin.

1 - jadval

O`zbekiston Respublikasida 2017 – 2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko`rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd. so`m²

Yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2017 yilga nisbatan o`shish sur`ati
Surxondaryo viloyati	3431,7	4563,9	4879,9	5331,3	6938,4	8279,3	9979,1	2,9 barobar
O`zbekiston bo`yicha	69212,7	84433,4	103106,6	114052,7	147061,6	181245,0	224443,7	3,2 barobar


Yuqoridagi ma`lumotlarga asoslanib quyidagi xulosa kelamiz, Surxondaryo viloyatida kichik biznes tadbirkorlar subyektlari tomonidan ko`rsatilgan xizmatlar hajmi 2023 yilda 2017 yilga nisbatan 2,9 barobar oshgan. O`zbekiston bo`yicha esa bu ko`rsatkich 3,2 barobarga ko`paygan. Surxondaryo viloyatida bu davrda kichik biznes subyektlari ko`rsatilgan hajmi O`zbekiston Respublikasi bo`yicha o`rtacha o`shish sur`atilaridan pastroq natijalarga erishgan. Bundan kelib chiqadiki viloyatimizda xizmat ko`rsatish sohasida kichik biznesni rivojlantirish uchun hali katta imkoniyatlarimiz mavjud.

O`zbekistonda hozirgi kunda rivojlanib borayotgan sohalardan biri - bu ta`lim xizmati, aniqrog`i maktabgacha ta`lim xizmati. Maktabgacha ta`lim agentligi ma`lumotlariga qaraganda 2023-yilning 1-avgust holatiga ko`ra, respublikada jami 30 792 ta bog`cha faoliyat ko`rsatyapti. Shundan davlatga qarashli MTTlari soni 6 734 ta, nodavlat bog`chalar 24 058 tani tashkil etadi.³

¹ <https://telega.ph/Biznes-aslida-nima-Biznes-sozining-manosi-qanday-01-10>

² https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_466.pdf

³ <https://daryo.uz/2023/08/16/davlat-bogchalar-kopmi-yoki-xususi-ozbekistondagi-mttlar-soni-malum-qilindi>



1 - rasm. O'zbekistonda 2017 - 2023 yillarda tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining dinamikasi.

Tashkiliy shakli bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlarini asosan quyidagi turlarda ko'rishimiz mumkin:

- a) Davlat
- b) Nodavlat.


Mamlakatimizda nodavlat MTTlar xususiy, oilaviy va davlat - xususiy sherikchi-likka asoslanib tashkil etilmoqda.

2 - jadval

O'zbekistonda 2023 yilda tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlar (MTT)*

Xususiy MTT	Oilaviy MTT	Davlat-xususiy MTT	Jami
789	21941	1328	24058

*Muallif tomonidan tuzilgan



2 - rasm. O`zbekistonda 2023 yilda tashkil etilgan maktabgacha ta`lim tashkilotlarning tashkiliy shakllari.

O`zbekistonda 2023 yilga kelib 24 058 ta nodavlat maktabgacha ta`lim tashkilotlari faoliyat yuritilgan bo`lib, xususiyl 3,3 %ni, oilaviyl 91,2 %ni va sherikchilikka asoslangan MTTlar 5,5 %ga teng.

Yuqoridagi rasmda ko`rinib turibdiki nodavlat MTTlar asosan oilaviyl korxonalar shaklida tashkil etib kelmoqda. Oilaviyl korxonalarni ortib borishi mamlakatimizda kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni tashkil etish uchun yaratilgan shart – sharoitlar bilan izohlashimiz mumkin. Yangi korxonani ochish tizimini takomillashtirish, bu yo`nalishda tashkil qilingan korxonalar davlat tomonidan subsidiyalarning berilishi, banklar tomonidan imtiyozli kreditlarni ajratilishi nodavlat MTTlarning tarmog`ining rivojlanish sababidir.

O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta`lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi – “Maktabgacha ta`lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-3955 - son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo`lib, 2030-yilgacha maktabgacha ta`lim tizimini rivojlantirish bo`yicha kompleks chora-tadbirlarni o`z ichiga oladi. Konsepsiya O`zbekiston Respublikasida maktabgacha ta`limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo`nalishlari, o`rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta`lim sohasini rivojlantirishga yo`naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo`ladi.⁴

O`zbekistonda MTTlarning yil sayin ortib borishi albatta bu yaxshi natija, lekin bu tashkilotlarni malakali pedagogik kadrlar bilan ta`minlash bu muhim masalalardan biridir.

Sabab shundaki, faoliyat yuritayotgan MTTlarda hanuzgacha yuqori malakali pedagogik kadrlarga bo`lgan ehtiyojlar qondirilmagan. Agar bu tashkilotlar yildan yilga ko`payib borayotgan bo`lsa kadrlarga bo`lgan ehtiyoj surunkali muammoga aylanadi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

- a) hududdagi tashkil etilgan MTTlar va pedagogika kolleji hamda OTMlar bilan hamkorlik aloqalarni o`rnatish va ularni takomillashtirish;
- b) har yili hududlarda MTTlarda pedagoglarga bo`lgan talablarni monitoring olib borish va ta`lim tashkilotlariga yetkazish;
- c) ta`lim tashkilotlarida tarbiyachi va yordamchi tarbiyachilarga qisqa malakali kurslarni tashkil etish va muvaffaqiyatli kurslarni tugatgan xodimlarga tegishli sertifikatlarni berish;
- d) pedagogik kollejlarda qabul kvotasini oshirish;
- e) dual ta`limni rivojlantirish va takomillashtirish.

Yuqoridagi takliflarni joriyl qilish orqali ish faoliyatdagi va yangi tashkil etilayotgan MTTlarni yuqori malakali kadrlar bilan ta`minlashga erishamiz. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash hamda ularni bilim va ko`nikmalarini shakllantirishda katta hissa qo`shgan bo`lamiz.

Adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov A.E., Eshov M.P., Sunnatov M.N. «Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari» - O`quv qo`llanma - T.: TDIU, 2006 – 208 bet.

⁴ <https://lex.uz/docs/-4327235>

2. N.M.Qo`chqoriva, R.S.Nuraddinova. Tarbiyachi – pedagoglarda iqtisodiy-huquqiy kompetentlikni rivojlantirish fanida O`UM. Urganch 2022.
3. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/46575-8kichik-biznesning-yaim-yahm-dagi-ulushi-qanday-3>
4. <https://telegra.ph/Biznes-aslida-nima-Biznes-sozining-manosi-qanday-01-10>
5. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_466.pdf
6. <https://daryo.uz/2023/08/16/davlat-bogchalari-kopmi-yoki-xususiy-ozbekistondagi-mttlar-soni-malum-qilindi>
7. “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-3955 - son qarori <https://lex.uz/docs/-3923110>
8. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. <https://lex.uz/docs/-4327235>

